



BIR IGNADONLI TRIKOTAJ MASHINALARDA YANGI YURDAGI BIR QAVATLI TRIKOTAJ TO'QIMALARINI YARATISH

Doktorant: B.Y.Qoraboyev

Erkin Izlanuvchi: Saparova Sarvinoz Akram qizi

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya: Yangi tuzilishli trikotaj to'qimalarini yaratib, trikotaj assortiment turlarini kengaytirish va sifat ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan trikotaj to'qimalarini olish.

Получение качественного трикотажа с целью создания новой структуры трикотажа и расширения ассортимента трикотажных изделий.

Obtaining high-quality knitted fabrics in order to create a new structure of knitted fabrics and expand the range of knitted assortments.

Kalit so'zlar: trikotaj, paxta, to'qimachilik, mahsulot, bir qavat, sintetik, tola, press, glad, igna.

Maqsad: Bir ignadonli mashinalarning texnologik imkoniyatlaridan keng foydalanib sifatli va raqobatbardosh trikotaj to'qimalarini ishlab chiqarish.


Bugungi kunda trikotaj mahsulotlariga bo'lgan talab va extiyoj oshib borishi natijasida ishlab chiqarish jaryoni yanada rivojlanib bormoqda, natijada trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishda, boshqa to'qimalarga nisbatan qulay havo o'tkazuvchan va cho'zilish xususiyatiga ega bo'lgan trikotaj to'qimalari ishlab chiqarilmoqda. Mahalliy homashyolardan samarali foydalanib, sifatli, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish maqsadida yangi tuzilishli va ko'rinishga ega bo'lgan trikotaj to'qima mahsulotlarini ishlab chiqarish kunning dolvzarb muommolaridan biri hisoblanadi. Trikotaj to'qimalarining tuzilishi, uning fizik-mexanik xususiyatlarini o'rgangan holda, trikotaj to'qimalarining yangi assortiment turlarini raqobatbardosh va bozor talabiga mos kelishini o'rganishdir. Demak, bir ignadonli trikotaj to'quv mashinalarida ishlab chiqarilgan to'qimalar tuzilishi, yuza zichligi havo o'tkazuvchanligi hamda ishqalanishga chidamliligi bilan to'qimalar orasida farqlanadi (1-jadval)

Yangi trikotaj to'qimalarni yaratishda PAI LUNG bir ignadonli trikotaj to'quv mashinasidan foydalanildi va yangi trikotaj to'qimalari loyihasi ishlab chiqildi rasm-1-2. Tadbiq qilinayotgan 1 –rasm press trikotaj to'qimasi halqa hosil qilishda,




tarkibi halqa bilan birga nabroska (yarim halqa)lardan iborat bo'lib naqishli trikotaj to'qimalarini olishda keng foydalaniladi.[1.3]

Namuna-I



a



b



c





d

Rasm-1. Yangi tuzilishli press trikotaj to'qimasining tuzilishi-*a*, -*b* va to'qima namunasini mikroskopik ko'rinishi-*c*, -*d*, (Namuna-I)

Namuna-I. Yangi tuzilishli press trikotaj to'qimasining tolaviy tarkibi, 40 teks 66% li bo'lgan paxta va 100 denier 34% li bo'lgan poliestr tolaviy tarkibga ega bo'lgan to'qima olindi (rasm-1).

Namuna-II tolaviy tarkibi 30 teks 92% li bo'lgan paxta va 30 denier 8% li laykra ipidan foydalanildi va to'qima olindi (rasm-2)

Namuna-II






a




b



c



d




Рasm-2. Yangi tuzilishli glad trikotaj to'qimasining tuzilishi -a, -b va to'qima namunasini mikroskopik ko'rinishi -c, -d, (Namuna-II)

Bir igandonli mashinalarda yangi tuzilishli trikotaj to'qimalarning fizik-mexanik xususiyatlari

1-jadval


№	Yuza zichligi g/m ²	Havo o'tkazuvchanligi sm ³ /sm ² sek P=1atm	Ishqalanishdagi chidamliligi 12k Paskal sikl	Uzilishdagi uzayish bo'yi bo'yicha %	Uzilishdagi uzayish eni bo'yicha %
1	130,1	236,6	12,8	107,7	256,9
3	155,5	310,2	10,1	187,7	89,2

1-gistogramma





2-gistogramma



Xulosa: Tadqiq qilinayotgan yangi tuzilishli bir qavatli trikotaj to'qimalarning fizik-mexanik xususiyatlarini o'rganish natijasida quyidagi ko'rsatkichlarga erishildi. 1-gistogrammada I-namunaning fizik-mexanik xususiyatlarini o'rganish natijasida Havo o'tkazuvchanligi 236,6 sm³/sm²sek P=1atm Uzilishdagi uzayish eni bo'yicha 256,9% ni 2-gistogrammada II-namunaning fizik-mexanik xususiyatlarini o'rganish natijasida Havo o'tkazuvchanligi 310,2sm³/sm²sek P=1atm Uzilishdagi uzayish eni bo'yicha 89,2% ni tashkil qildi. Bu to'qimanlar havo o'tkazuvchanligi bo'yicha bahor va yoz oylarida erkaklar va ayollar ustki futbolgasi, ishqalanishga chidamliligi bo'yicha erkaklar va ayollar sport kiyimlari, uzilishdagi uzayishi bo'yicha esa sport gimnastikachilari uchun kiyim ishlab chiqarisha tavsiya berishimiz mumkin

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mukimov M.M. Trikotaj texnologiyasi.-T.: O'zbekiston. 2002 y.
2. N.R.Xanxadjayeva Naqsh hosil qilish nazariy asoslari. arsluk.T."Aloqachi" 2010
3. M.M.Muqimov, Q.M.Xolikov, K.Z.Yunusov. Xalqa hosil qilish jarayoni. O'quv qo'llanma. T. 2018, 111 b.
4. Sh.R.Ikramov, R.N.Abdullayev. Maxsus texnologiya. (Donali trikotaj ishlab chiqarishda xomashyoni tejash qismi). "Tafakkur Bo'stoni". Toshkent 2015.